

DINIY XARAKTER YETAKCHILIK QILADIGAN AYOLLAR NOMLARI HAQIDA

Yo'ldashova Rayxon Baxtiyor qizi

Annotatsiya: *Mazkur maqolamizda Xorazm dostonlaridagi diniy xarakter yetakchilik qiladigan ayollar nomlari va ularning, etnografik til xususiyatlari ochib beriladi.*

Kalit soʻzlar: *diniy xarakterga ega nomlar, real va persanaj nomlari, fonetik hodisaga uchragan nomlar, bir va ikki komponentli ayollar nomlari, nomlarning lugʻaviy maʼnolari.*

Аннотация: *В статье раскрываются имена женщин, религиозный характер которых доминирует в эпосах Хорезма, а также их этнографические и лингвистические характеристики.*

Ключевые слова: *имена религиозного характера, настоящие и символические имена, имена, претерпевшие фонетические явления, одно- и двухкомпонентные женские имена, словарные значения имен.*

Abstract: *This article reveals the names of women whose religious character dominates in Khorezm epics and their ethnographic linguistic characteristics.*

Keywords: *names of a religious nature, real and character names, names that have undergone phonetic phenomena, one- and two-component female names, dictionary meanings of names.*

Arablar tomonidan Oʻrta Osiyoning bosib olinishi va ularning uzoq davom etgan hukmronligi, hamda bu yerda yashovchi xalqlarning asrlar davomida islom dini taʼsirida boʻlishlari mahalliy aholi tiliga, ayniqsa, uning leksikasiga arab soʻzlarining singib ketishiga sabab boʻlgan.

Arab tiliga xos soʻzlar Oʻrta Osiyo xalqlari tiliga yozma adabiyot orqali, asosan, eroniy tillardagi adabiyot orqali oʻtgan¹. Tarixan arab tilidan oʻtgan soʻzlarning ayrimlari oʻzlashib, hozirda boshqa tildan oʻtganligi sezilmas darajaga kelib qolgan. Professor F.Abdullayevning qayd qilishicha, “biz bunday soʻzlarni tamomila oʻzlashtirib, oʻz soʻzimizdek turlayveramiz, yasovchi qoʻshimchalar vositasi bilan ulardan yangi soʻzlar yasaymiz²”.

Xorazm dostonlari onomastikasida arabiy asosga ega boʻlgan nomlar katta koʻpchilikni tashkil qiladi. Ayniqsa, arab tilidan oʻzlashgan Olloh va uning sifatlarini ifodalovchi nomlar (teonimlar) salmoqli oʻrinni egallaydi. Bunday nomlarning koʻpchiligi oʻzbek kishilari, umuman, musulmonchilikni qabul qilgan turkiy qavmlar aʼzolarining ismi sifatida ham qoʻllaniladi. Paygʻambarlar, ularning yaqinlarining

¹ Madraximov O. Oʻzbek tilining oʻgʻuz lahjasi leksikasi. – B.41-42.

² Abdullayev F. Oʻzbek tili leksikasining baʼzi bir masalalariga doir.Til va adabiyot instituti asarlari . 1-kitob, Toshkent,1948. – B.89.

ismlaridan tashqari, ularga xos xususiyat va fazilatlarni ifoda etuvchi nomlar – “kunya”lar, ramziy nomlar ham mavjuddir. Misol uchun: Al-Amin (Muhammad payg‘ambarning laqabi, ma’nosi – to‘g‘ri so‘z, jasur, aslzoda demakdir), Tohira (Muhammad payg‘ambarning xotini Xadichaning laqabi, pokdomon degan ma’noni anglatadi³) va boshqalar.

Xorazm dostonlari tilida qo‘llanilgan arabiy tillar bilan bog‘lanadigan diniy qadriyatlarimiz bilan aloqador xotin-qizlar nomlari ham faol qo‘llaniladi. Buning bir qancha sabablari bor. Birinchidan, mazkur dostonlar tarqalgan hududda asosan islomiy qadriyatlarga amal qilinib kelinadi. Ikkinchidan, doston tinglovchilari orasida ayollar, xotin-qizlarning ham mavjud ekanligi ham diniy qadriyatlar bilan bog‘liq nomlar ishlatilishini taqozo qiladi. Uchinchidan, diniy motivlar yetakchilik qiladigan dostonlarda bunday nomlarning ishlatilishi badiiy talab bilan ham yuzaga chiqadi. Quyida ana shunday nomlarning ayrimlari haqida fikr yuritamiz.

Shunday nomlardan biri Bibi Maryam nomidir. Ushbu nom Go‘ro‘g‘li va “Oshiqnoma” turkumidagi dostonlarda birdek qo‘llanilgan ayollar nomlaridan biridir. “Ro‘zaxon” dostonidagi quyidagi parchada uchraydi: “...O‘rislarning e’tiqodicha, go‘yo shu vaqtlari Maryam tog‘iga hazrati Bibi Maryam kelib yuradi. Xudoga yoqqan bandalar ko‘radi...”⁴. yoki:

...Barchaning otasi Hazrati Odam,
Andin paydo bo‘ldi Iso-yu Maryam,
Yuz yigirma to‘rt ming Muhammad hotam,
Adigajonimni sanga topshirdim...⁵

Bibi Maryam xristian dini manbalarida Isoning onasi, xristianlikda “bogoroditsya” (богородица), “bogomater” (богоматерь), “deva Mariya” (дева Мария), islomda Bibi Maryam degan nom bilan mashhur tarixiy shaxs nomidir. Aqidalarga ko‘ra uni ayollar voliysi, homiysi sifatida ilohiylashtirib, u haqda turli-tuman afsona va rivoyatlar to‘qilgan.

O‘rta Osiyo hududlarida istiqomat qilib kelayotgan ayollar ismiga “bibi” komponentini qo‘shib qo‘llash odat tusiga kirib qolgan. “Bibi” slavyan tillarida ham mavjud bo‘lib, xonim “госпожа” ma’nolarini anglatadi. Mazkur elementning asosiy funksiyasi ayol ismlarini hosil qilishdir. Arab oy kalendari (taqvimi) bo‘yicha Ashur yoki Rajab oyida tug‘ilgan chaqaloqlar ushbu oy nomlari bilan atalganlar. Lekin shu oyda tug‘ilgan qiz bolalar ismiga albatta “bibi” komponenti qo‘shilgan: Bibiashur yoki Ashurbibi; Rajabbibi yoki Bibirajab kabi. “Bibi” elementi kelib chiqishiga ko‘ra turkiy birlik bo‘lib, “xonim” ma’nosini anglatadi. Forsiy xalqlarda bibi – buvi ma’nosida qo‘llanadi. Qadimgi davrlarda avliyo darajasida tasavvur qilinadigan ayollar ismlariga ham mana shu qism qo‘shib ishlatilgan. Masalan, Muhammad

³ Abdulaziz Mansur, Bahmonyor Shokir. Musulmonchilikdan ilk saboqlar. Toshkent, 1992. – B.13.

⁴ Go‘ro‘gli. Nashrga tayyorlovchilar: To‘ra Mirzo va Zubayda Husainova. Aytuvchi Rahmatulla shoir Yusuf o‘g‘li. –Toshkent: Sharq nashriyoti, 2006. –B. 360 (448 b)

⁵ Oshiqnoma. 2-kitob. Mas’ul muharrir S.Ro‘zimboyev. –Urganch: Xorazm nashriyoti, 2006. –B. 197.

(s.a.v.) ning rafiqalari Xadicha, Oysha; qizlari Zaynab, Ruqiya va Fotimalarni ham ismlari oldidan “bibi” elementini qo‘shib, Bibi Xadicha, Bibi Oysha, Bibi Zaynab, Bibi Ruqiya, Bibi Fotima kabi shakllarda atab kelishgan.

Xorazm regionida tarqalgan dostonlar tilida aynan shu shakldagi nom odatdagi asar qahramonini nomlashda ham ishlatilganini ko‘ramiz. Shundan ma’lum bo‘ladiki, muayyan bir shaldagi nom qanday obyektini nomlashga xizmat qilayotganiga qarab nomlarni real tarixiy shaxslarni yoki odatdagi to‘qima personajlarning nomlari ekanligiga e’tibor qaratish lozim.

Umuman olganda, yozma va og‘zaki adabiyotga aloqador asarlar tilida ayol nomlarining qo‘llanishida juda ko‘p o‘ziga xosliklar mavjud. Masalan, ayrim nomlar yozma adabiyotda ham, og‘zaki adabiyotda ham aynan bir shaxsni nomlab keladi va shu ma’noda ishlatiladi, ba’zi ayol nomlari esa bir xil shaklda bo‘lishiga qaramay, boshqa-boshqa shaxslarni atab kelishi mumkin.

Quyidagi parchaga diqqat qilaylik: “...Qopusini balli qilib, Karamjonni keltirish uchun uyiga bordi. Asilxon parizodning onasi Maryam eshigina chiqib erdi...”⁶; Yoki:

...Onasi Maryamdur, Qoramalik otasi,

Qiyomatda maning ohim tutasi,

Qizil yog‘ochdadur nargiz butasi,

Qizlar yorim bu diyora keldimi? ..⁷

Ayol nomlari taraqqiyotining keyingi davrlariga kelib “bibi” elementi xotin-qizlar nomlarining o‘ziga xos ko‘rsatkichi, aniqlovchisiga aylangan desak xato bo‘lmaydi. Mazkur element Xorazm dostonlaridagi Navbahorbibi, Bibitarlixon, Bibijon, Bibizahro kabi ayollar nomlar tarkibida qo‘llanilgan.

Hozirgi o‘zbek tilining ayrim shevalarida “bibi” komponentining talaffuzida turli fonetik o‘zgarishlar kuzatiladi. Ba’zan element tarkibidagi ikkinchi bo‘g‘inning birinchi undoshi “b” “v” tovushiga almashsa (Bivisaro, Bivirajab), ba’zan uning ikkinchi bo‘g‘ini to‘liq tushib qoligan holatlar kuzatiladi. Masalan: Bisaro, Birajab kabi.

Sora // Bibisora. Yuqorida ta’kidlanganidek, diniy qarashlarimiz bilan bog‘liq ayollar nomlari tarkibida bibi elementi faol qo‘llanilishi Bibisora yoki Soraz nomi tahlilida ham ko‘zga tashlanadi. Mazkur nom bilan Ibrohim payg‘ambarning rafiqasi Sora onamiz nazarda tutiladi va Xorazm dostonlarining ko‘pchiligida mazkur nom qo‘llaniladi. Ko‘pincha Ibrohim nomi bilan yonma-yon, yoki unga ishora qilingan o‘rinlarda uchraydi. “Go‘ro‘g‘lining o‘limi” dostonidan olingan quyidagi parchag e’tibor qilaylik:

...G‘amgin bo‘lma bu aldamchi dunyoda,

Odam ul Havodan ayrilmadimu?

Necha yillar totuvliqman bir bo‘lib,

⁶ Oshiqnoma. 2-kitob. Mas’ul muharrir S.Ro‘zimboyev. –Urganch: Xorazm nashriyoti, 2006. –B. 283.

⁷ Oshiqnoma. 2-kitob. –B.268.

Ibrohim Sorodan ayrilmadimu?...⁸. ushbu parchada diniy qashlarimiz bilan bog'liq ayollar nomlaridan ikkitasi ishtirok qilmoqda. Havo hamda Sora onalarimizning nomlari. Sora ismining ol qismida bibi komponenti qo'shilgan shakl ham juda faol bo'lib, u ham aynan o'sha shaxs ma'nosida qo'llaniladi. "Oshiqnoma" turkumining 1-kitobidan joy olgan "Edigo" dostonidagi parchada xuddi shu shaklda qo'llanilganini kuzatamiz:

...Bu mehnatdan bugun qutulsam agar,
Gumonim yo'q emgi, o'larman magar,
Qo'lim tutgil Bibisora yo Hojar,
Najot bering yomon darda uchradim...⁹

Shunga o'xshash parchalardan ko'rinib turibdiki, g'oyaviy nuqtayi nazardan bu turdagi dostonlarda diniy yo'nalish yetakchilik qiladi. Payg'ambarlar, chahoryorlar va boshqa diniy martabaga ega bo'lgan shaxsiyatlarning nomlari barcha turdagi dostonlarda ham qo'llanilgan, ammo, diniy yo'nalishdagi dostonlarda bu hol ancha kengaygan tarzda amalga oshirilganligi kuzatiladi.

Keng xalq ommasi orasida, to'y, bazm va yig'inlarda kuylanadigan dostonlardagi diniy-g'oyaviy yo'nalishdagi nomlar, uning kuylovchisi baxshi yoki jirovning bilimi, salohiyati, nutqi (shevasi) bilan bog'liq ravishda qo'llanilgan. Bundan tashqari, bu turdagi dostonlar ko'pincha og'zaki tarzda ijro qilinib, kelingani sababli, ijro qilinayotganda yoki nashr qilinayotganda vaziyatga qarab ba'zan diniy xarakterga ega qismlar chetlab o'tilgan, yoki umuman olib tashlangan. Ammo, ikkinchi turdagi dostonlar, asosan, yozma holda yetib kelishi, Xorazmda, asosan, ayol xalfalar tomonidan o'qib eshittirilishini inobatga olsak, bu yerdagi nomlar hech o'zgarishsiz va aytuvchining bilimi, nutqi, salohiyati kabilardan qat'iy nazar dostonlar leksikasidan joy olavergan.

Dostonlarimizning yuqorida tilga olganimiz ikkinchi toifasida e'tiqodimizga aloqador nomlar orasida payg'ambarimiz Muhammad mustafo u kishining ayollari nomlarining qo'llanishini alohida ta'kidlash lozimki, bu nom qo'llanilmagan xalq dostonining o'zini topish mushkul.

...O'g'ilsizlar chekar zahmat,
Qizlik uyga yog'ar rahmat,
Xudoning do'sti Muhammad,
Alar ham o'tdi o'g'ilsiz...¹⁰

Yozma adabiy manbalarda mazkur nom "Muhammad mustafo", "Rasuli Hoshimiy", Rasul kabi variantlarda ham qo'llanilishi quyidagi misollardan ham ayon bo'ladi:

Andoqki, Rasuli Hoshimiy, kesh,
Hajr ichra shu bo'ldi vuslat andesh...¹¹

⁸ Go'ro'gli. Nashrga tayyorlovchilar: To'ra Mirzo va Zubayda Husainova. Aytuvchi Rahmatulla shoir Yusuf o'g'li. -Toshkent: Sharq nashriyoti, 2006. - B.411.

⁹ Oshiqnoma. 1-kitob. Mas'ul muharrir S.Ro'zimboyev. -Urganch: Xorazm nashriyoti, 2006. -B.176.

¹⁰ Oshiqnoma 1-kitob. Hurliqo va Hamro dostoni. 103-bet.

Ishimiz maqsadidan kelib chiqib, ayollar nomlari haqida aytiladigan bo'lsa, diniy e'tiqod bilan bog'liq nomlari orasida Xadichayi Kubro (Buyuk Xadicha) nomining alohida o'rni mavjud. Bu tipdagi nomlar ichida eng faoli "Xadicha" nomi bo'lib, bu nom payg'ambarimiz Muhammad Rasullullohning rafiqalari nomidir.

...Holim ko'rib najot barsang bu isha,
Kelib qo'lim oling yo Bibi Hadicha,
Yo Fotima-Zuhra, yo Bibi Oysha,
Qo'lim oling yomon darda uchradim...¹²

Nomning "Xadicha" shaklidan tashqari turli manblarda "Xadichayi Kubaro", "Bibi Xadicha" kabi shakllarda ishlatilishini kuzatish mumkin. Misollarga murojaat etaylik:

Qaysi Bilqis, Sorayi Uzmo,
Qaysi Soro, Xadichayi Kubpo¹³...

Diniy xarakter yetakchilik qiluvchi yana bir ayollarga xos nomlardan biri Zulayho nomidir. Ushbu nom nafaqat folklor asarlari tilida, balki yozma adabiyotga, mumtoz she'riyatga aloqador matnlarda ham eng faol ayollar nomi desak xato qilmagan bo'lamiz. Ma'lumki, Zulayho Yusuf payg'ambarimizning rafiqalarining nomi bo'lib, bu nomlar Yusufning otasi Ya'qub payg'ambar nomlari bilan ko'p hollarda yonma-yon qo'llaniladi. "oshiqnoma" turkumining 4-kitobiga kiritilgan "Avaz gatirgan" dostonidan olingan quyidagi parchada uchraydi:

...Yoqub yig'lab ayrilg'andur ko'zidin,
Hech foyda topmadi aytgan so'zidin,
Orzu Qambaridin, kular yuzidin,
Yusuf Zulayhodin ayrilmadimu?..¹⁴

Yuqoridagi misollardan ham ko'rinib turibdiki, qadriyatlimizga aloqador ayollar nomlari, asosan, she'riy o'rinlarda ko'proq kuzatiladi. Yana bir jihati muhimki, ular lirik chekinish o'rinlarida talmehlar sifatidagina yuzaga chiqadi.

Folklor asarlari va yozma adabiyotga aloqadaor kishi ismlarining hammasi ham diniy xarakterga ega bo'lgan nomlardan iborat emas. Ular orasida oddiy xalq orasidan chiqqan qahramonlar, tarixda yashagan mashhur sarkardalar va qolaversa, barcha uchun ma'lum bo'lgan asar qahramonlarining nomlari ham mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Madraximov O. O'zbek tilining o'g'uz lahjasi leksikasi.
2. Abdullayev F. O'zbek tili leksikasining ba'zi bir masalalariga doir. Til va adabiyot instituti asarlari. 1-kitob, Toshkent, 1948.

¹¹ Layli va Majnun. Nashrga tayyorl. B.Hasanov. G'.G'ulom nashriyoti. O'zbek adabiyoti bo'stoni. -T. 1990. -B.34

¹² Oshiqnoma I kitob. Edigo dostoni. -Urganch: Xorazm nashriyoti, 2006. -B. 176.

¹³ Sab'ai Sayyor. Nashrga tayyor. B.Hasanov. O'zbek adabiyoti bo'stoni. -T.: G'.G'ulom nashriyoti. 1991. -B. 64

¹⁴ Oshiqnoma. 4-kitob. Mas'ul muharrir S.Ro'zimboyev. -Urganch: Xorazm nashriyoti, 2008. -B.243. (356 b)

3. Abdulaziz Mansur, Bahmonyor Shokir. Musulmonchilikdan ilk saboqlar. Toshkent, 1992.
4. Go'ro'gli. Nashrga tayyorlovchilar: To'ra Mirzo va Zubayda Husainova. Aytuvchi Rahmatulla shoir Yusuf o'g'li. –Toshkent: Sharq nashriyoti, 2006.
5. Oshiqnoma. 2-kitob. Mas'ul muharrir S.Ro'zimboyev. –Urganch: Xorazm nashriyoti, 2006.
6. Oshiqnoma 1-kitob. Hurliqo va Hamro dostoni. 103-bet.
Layli va Majnun. Nashrga tayyorl. B.Hasanov. G'.G'ulom nashriyoti. O'zbek adabiyoti bo'stoni. –T. 1990.
7. Oshiqnoma I kitob. Edigo dostoni. –Urganch: Xorazm nashriyoti, 2006.
8. Sab'ai Sayyor. Nashrga tayyor. B.Hasanov. O'zbek adabiyoti bo'stoni. –T.: G'.G'ulom nashriyoti. 1991.
9. Oshiqnoma. 4-kitob. Mas'ul muharrir S.Ro'zimboyev. –Urganch: Xorazm nashriyoti, 2008.